Respublikamizda iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida pillachilik tarmog'ini samaradorligini oshirish, ipakchilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mamlakatimizda pillachilik tarmog'i rivojlanishi uchun sohada uzuksiz ravishda innovatsion yondashuvga yo'naltirilgan siyosatni olib borish, uni izchil joriy etish chora-tadbirlarini va innovatsiya asosida texnik-tehnologik jihatdan modernizatsiyalash yo'nalishlarini ishlab chiqish, pillachilik tarmog'i rivojlanishini belgilab beruvchi tut plantatsiyalarini samarali tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda pillachilik tarmog'ining ustunligi ishlab chiqaruvchilarning an'anaviy va zamonaviy agrotexnik usullarni qo'llashi va boy tajribaga ega ekanligi, uning iqlim sharoitimizga to'g'ri kelishi va qishloq joylarda ishchi kuchining mavjudligidadir. Bu tarmoqni rivojlantirish mamlakatimizning eksport salohiyati oshishi hamda chet el valyutasi tushumiga ta'sir qiladi. Shuningdek, ushu soha korxonalari ishchilarining asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etishi respublikamizdagi bandlik darajasini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda 60 dan ortiq mamlakatlarda pilladan ishlab chiqariladigan mahsulotlar dunyo to'qimachiligining 0,2 foizini tashkil etsada, 20 dan ortiq mamlakatdagina pilla yetishtiriladi. Dunyoda pilla yetishtirish miqdori bo'yicha birinchi o'rinda Xitoy, ikkinchi o'rinda Hindiston, uchinchi o'rinda O'zbekiston, to'rtinchi o'rinda Koreya turadi. O'zbekistonda dunyoda aholi jon boshiga pilla yetishtirish bo'yicha birinchi o'rinda tursa ham, jahon bozoridagi ulushi – atigi 2,5 foizni tashkil etadi. Respublikamizda nafaqat yetishtirilayotgan pilla xajmini oshirish, shu bilan bir qatorda, undan jahon andozalariga mos keladigan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Zero, butun dunyoda koronavirus pandemiysi sababli vujudga kelgan global iqtisodiy inqiroz sharoitida har bir mamlakat mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda kichik yashil biznes subektlari samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishi mumkin. Bu borada mavjud tut daraxtlari va ularning maydoni hamda yangidan yaratilayotgan yakka qator tut daraxtlari va tut maydonlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab 53,5 ming hektar tutzorlar barpo etilib, bahorgi mavsumda 62,5 million tup tut ko'chati va 53 million tupdan ortiq yakka qator tut daraxtlari ekilgan. Shuningdek, 2020-yilda yangi tutzorlar barpo etish uchun pillachilik tarmog'i tashkilotlariga ko'p yillik ijara shartnomasi asosida qishloq xo'jaligidagi foydalanishdan chiqarilgan yer maydonlarini ajratish bo'yicha hududlar kesimidagi ro'yxati tasdiqlangan (1-jadval).

**1-jadval:** O'zbekiston Respublikasida mavjud yakka qator tut daraxtlari va ularning maydonlari hamda 2016–2023-yillarda yangidan yaratilgan tut plantatsiyalarini tahlili

№	Hudud nomi	Yakka qator tut daraxtlari, ming tup	Tutzorlar maydoni, ga	Yangidan ekilgan yakka qator tut daraxtlari va tut maydonlari			
				2016		2023	
				Yakka qator tut daraxtlari, ming tup	tutzorlar maydoni, ga	Yakka qator tut daraxtlari, ming tup	tutzorlar maydoni, ga
1	Qoraqolpog'iston Respublikasi	3365,3	2627,2	413,9	123,5	309,6	118,2
2	Andijon	4144,5	5195,6	733,6	62,3	397,9	166,3
3	Buxoro	4134,5	3680,1	326,6	231,8	277,0	202,4
4	Farg'onra	14222,4	3442,1	455,1	289,1	455,1	216,9
5	Jizzax	2536,1	1986,8	273,9	105,3	218,1	83,4
6	Namangan	7265,2	2858	268,8	34,3	835,5	108,6
7	Navoiy	3059	1100	171,3	40,7	192,7	100,1
8	Qashqadaryo	3463,9	6788,6	315,2	244,4	218,2	868,9
9	Samarqand	7645,4	7391,5	741,6	214,4	642,2	495,2
10	Surxondaryo	4286,2	3431,1	480,1	147,5	390,0	223,0



11	Sirdaryo	1335,2	1806	85,5	14,4	101,5	106,6
12	Toshkent viloyati	4913	3626,7	172,0	137,8	324,3	83,4
13	Xorazm	7491,3	5064,3	516,9	131,7	606,8	283,6
	<b>Jami</b>	<b>67862,0</b>	<b>48998,0</b>	<b>4954,4</b>	<b>1777,3</b>	<b>4968,9</b>	<b>3056,7</b>

Quyidagi 1-jadvalni tahlil qilar ekanmiz bunda “Yangidan ekilgan tut daraxtlari va tut maydonlari” haqida ma'lumotlarni 2016-yildan 2023-yil oraliq'ida Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat hududida ekilgan tut daraxtlari va tutzorlar maydonlarini tahlilini ko'rish mumkin. 2016-yilda yakka qator tut daraxtlari Qoraqalpog'iston Respublikasida 413,9 ming tup ekilgan tutzorlar maydoni esa 123,5 hektar bo'lgan bo'lsa 2017-yilda bu ko'rsatkich 42%ga (242,3 ming tup) pasayganini tutzorlar maydoni esa 2% ga oshirilganini ko'rish mumkin.

Andijon viloyatining yakka qator tut daraxtlarini tahlilini oladigan bo'lsak, 2016-yilda 733,6 ming tup ekilgan va tutzorlar maydoni esa 62,3 hektarni tashkil etgan. 2017-yilga kelib, Andijon viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 70% (223,8 ming tup) ga pasaydi va viloyatning tutzorlar maydoni esa 25% (77,9 ming tup) ga oshgan. Buxoro viloyati tutzorlarini solishtiradigan bo'lsa, 2016-yilda yakka qator tut daraxtlari 326,6 ming tupni uning tutzorlar maydoni 231,8 hektarni egallagan. Buxoro viloyatining yakka qator tut daraxtlari 2017-yilda 55% (148,8 ming tup) pasaydi tutzorlar maydoni esa 8% (77,9 hektar)ga oshirildi. Navoiy viloyati yakka qator tut daraxtlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2016-yilda 171,3 ming tupni 2017 yilda esa bu tuplar soni 60% (82,6 ming tup)ga pasaydi. 2016 yilda uning tutzorlar maydoni 40,7 hektarni tashkil etgan edi, bu ko'rsatkich 2017-yilda 37% (30,8 hektar)ga qisqardi. Qashqadaryo viloyati yakka qator tut daraxtlari 2016-yil 315,2 ming tupni uning tutzorlar maydoni esa, 155,9 hektarni tashkil etgan. 2017-yilga kelib bu ko'rsatkich yakka qator tut daraxtlari 51% (244,4 ming tup)ni tutzorlar maydoni esa 20% (196,9 hektar)ni tashkil qilgan. Surxondaryo viloyati ko'rsatkichlarini ko'rib chiqar ekanmiz 2016-yilda yakka qator tut daraxtlari soni 480,1 ming tupni, viloyatning tutzor maydonlari esa 147,5 hektarga to'g'ri keladi. 2017-yilga kelib yakka qator tut daraxtlari soni 36%ga kamayib ketgan va tutzorlar maydoni 28%ga qisqardi.

Toshkent viloyatining tut daraxtlari va tutzorlar maydoniga keladigan bo'lsak, 2016-yilda bu viloyatning yakka qator tut daraxtlari soni 172,0 ming tupni uning tutzor maydoni 137,8 hektarni tashkil qildi. 2017-yilga kelib bu ko'rsatkichlar keskin pasaydi, yakka qator tut daraxtlari soni 46% ga pasayadi va viloyatning tutzorlar maydoni 40% ga kamaydi. 2016–2017-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatning yakka qator tut daraxtlari sonining jami 2016-yilda 4954,4 ming tupni tashkil qildi va 2017-yilda uning ko'rsatkichi 48% ga pasayganini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shu ko'rsatkichlarning tutzorlar maydoni 2016-yilda 1777,3 hektarni tashkil qilgan bo'lsa 2017-yilga kelib, 21% ga tushib ketgan (2-jadval).

**2-jadval:** O'zbekiston Respublikasida 2016–2023-yillarda yangidan ekilgan yakka qator tut daraxtlari tahlili (ming tup hisobida)

№	Hudud nomi	Yangidan ekilgan yakka qator tut daraxtlari							
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	413,9	242,3	249,0	539,8	441,7	353,4	276,0	309,6
2	Andijon	733,6	223,8	236,2	1436,7	1175,5	480,8	368,9	397,9
3	Buxoro	326,6	148,8	153,0	573,0	468,8	227,4	219,1	277,0
4	Farg'onha	455,1	184,9	199,1	737,1	603,1	327,1	355,6	455,1
5	Jizzax	273,9	180,1	185,1	300,4	245,7	218,1	185,1	218,1
6	Namangan	268,8	276,1	305,1	230,7	857,0	668,4	697,5	835,5
7	Navoiy	171,3	82,6	97,9	971,3	794,7	134,6	116,2	192,7
8	Qashqadaryo	315,2	155,9	159,3	492,6	403,0	218,2	204,4	218,2
9	Samarqand	741,6	481,7	519,9	1375,1	1125,0	565,8	489,3	642,2
10	Surxondaryo	480,1	308,6	321,5	720,7	589,6	351,5	227,2	390,0
11	Sirdaryo	85,5	38,7	101,5	253,6	207,5	110,8	94,8	101,5
12	Toshkent viloyati	172,0	93,3	113,0	351,9	288,0	235,8	221,1	324,3
13	Xorazm	516,9	202,3	239,7	589,2	482,1	516,9	434,5	606,8
	<b>Jami</b>	<b>4954,4</b>	<b>2619,0</b>	<b>2880,4</b>	<b>8572,0</b>	<b>7681,7</b>	<b>4408,7</b>	<b>3889,6</b>	<b>4968,9</b>



Ushbu jadvalni tahlil qilar ekanmiz bunda “Yangidan ekilgan tut daraxtlari va tut maydonlari” haqida ma’lumotlarni 2017-yildan 2018-yil oralig’ida Qoraqalpog’iston Respublikasi va 12 ta viloyat hududida ekilgan tut daraxtlari va maydonlarini tahlilini ko’rish mumkin. 2017-yilda yakka qator tut daraxtlari Qoraqalpog’iston Respublikasida 242,3 ming tup ekilgan tutzorlar maydoni esa 126,1 hektar bo’lgan bo’lsa 2018-yilda bu ko’rsatkich 2% ga (249,0 ming to’p) oshganini tutzorlar maydoni esa 2% ga oshirilganini va ko’rish mumkin. Farg’ona viloyatining yakka qator tut daraxtlarini tahlilini oladigan bo’lsak, 2017-yilda 184,9 ming to’p ekilgan va tutzorlar maydoni esa 213,4 hektarni tashkil etgan. 2018-yilga kelib, Farg’ona viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 7% (199,1) ga ko’paydi va viloyatning tutzorlar maydoni esa 9% (196,2) ga kamaygan. Jizzax viloyati tutzorlarini solishtiradigan bo’lsa, 2017-yilda yakka qator tut daraxtlari 180,1 ming tupni uning tutzorlar maydoni 53,6 hektarni egallagan. Jizzax viloyatining yakka qator tut daraxtlari 2018-yilda 2% (185,1 ming tup) oshdi tutzorlar maydoni esa 14% (61,6) ga oshirildi. Namangan viloyati yakka qator tut daraxtlarini tahlil qiladigan bo’lsak, 2017-yilda 276,1 ming tupni 2018-yilda esa bu tuplar soni 10% (305,1)ga oshganini ko’ra olamiz. 2017-yilda uning tutzorlar maydoni 25,7 hektarni tashkil etgan edi, bu ko’rsatkich 2018-yilda 33% (34,3)ga ekin maydoni kengaygan. Samarqand viloyati yakka qator tut daraxtlari 2017 yil 481,7 ming tupni uning tutzorlar maydoni esa, 155,2 hektarni tashkil etgan. 2018 yilga kelib bu ko’rsatkich yakka qator tut daraxtlari 2% (519,9 ming tup) ni tutzorlar maydoni esa 6% (184,8)ni tashkil qilgan. Sirdaryo viloyati ko’rsatkichlarini ko’rib chiqar ekanmiz 2017-yilda yakka qator tut daraxtlari soni 38,7 ming tupni, viloyatning tutzor maydonlari esa 10,8 hektarga to’g’ri keladi. 2018-yilga kelib yakka qator tut daraxtlari soni 62% (101,5 ming tup) ga oshib ketdi va viloyatning tutzorlar maydoni 83% (30,7) ga oshganini ko’rshimiz mumkin. Xorazm viloyatining tut daraxtlari va tutzorlar maydoniga keladigan bo’lsak, 2017-yilda bu viloyatning yakka qator tut daraxtlari soni 202,3 ming tupni uning tutzor maydoni 111,4 hektarni tashkil qildi. 2018 yilga kelib bu ko’rsatkichlar keskin oshdi, yakka qator tut daraxtlari soni 18% (239,7 ming tup) ga oshib ketdi va viloyatning tutzorlar maydoni 18% (131,7) ga oshganini ko’rshimiz mumkin. 2017–2018-yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasi va 12 ta viloyatning yakka qator tut daraxtlari sonining jami 2017-yilda 2619,0 ming tupni tashkil qildi va 2018-yilda uning ko’rsatkichi 9% ga ko’tarilganini ko’rshimiz mumkin. Xuddi shu ko’rsatkichlarning tutzorlar maydoni 2017-yilda 1405,2 hektarni tashkil qilgan bo’lsa 2018 yilga kelib, 7% ga oshib ketgan.

2018–2019-yillar oralig’ini tahlil qilishda ko’proq o’sish va kamayish ko’rsatkichlariga e’tibor qaratiladi. Qoraqalpog’iston Respublikasida 2018-yilda yakka qator tut daraxtlari 249,0 ming tupni tashkil qilgan, 2019-yilga kelib esa bu ko’rsatkich 539,8 ming tupga oshgan. Respublikaning tutzorlar maydoni esa 2018-yilda 128,7 hektar bo’lgan bo’lsa, 2019-yilga kelib esa tutzorlar maydoni 48%ga qisqargan. Andijon viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 2018-yilda 236,2 ming tupni tashkil etgan, 2019-yilga kelib daraxtlar soni sezilarli darajada oshganidan hayratda qolish mumkin 2019-yilda ular soni 1436,7 ming tupni tashkil qildi. Tutzorlar maydoniga keladign bo’lsak, 2018-yilda 93,5 hektarni tashkil qilib, 2019 yilda 15% ga ko’paydi. Buxoro viloyati tutzorlarining tahlilini 2018–2019-yillar kesimida ko’rsak, 2018-yilda yakka qator tut daraxtlari soni 153,0 ming tupni, viloyatning tutzorlar maydoni 231,8 hektarni tashkil etdi. 2019-yilda esa tut daraxtlar soni 573,0 ming tupga ko’payib ketdi. Viloyatning tutzorlar maydoni 17% ga kengaydi. Navoiy viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 2018-yilda 97,9 ming tupni, yakka qator tut daraxtlari soni 971,3 ming tupga keskin ko’payib ketgan, tutzorlar maydoni esa 32% ga qisqorganini ko’rish mumkin. Qashqadaryo viloyatining 2018–2019-yillardagi o’zgarishlarini ko’rib chiqadigan bo’lsak, viloyatning 2018-yilda yakka qator tut daraxtlari soni 159,3 ming tupni tutzorlar maydoni 210,4 hektarni tashkil etib, 2019-yilga kelib yakka qator tut daraxtlar soni 492,6 ming tupga oshib ketgan. Viloyat tutzorlar maydoni esa 3% ga kengaygan. Sirdaryo viloyati 1 yillik tahlilini ko’rib chiqilsa, 2018-yilda Sirdaryo viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 101,5 ming tupni, uning tutzorlar maydoni 30,7 hektarni tashkil qilgan. 2019-yil ko’rsatkichlariga qaralsa, yakka qator tut daraxtlari soni 253,6 ming tupni, tutzorlar maydoni 68,9 hektarni tashkil etgan. Bundan ko’rinib turibdiki, 1 yillik ko’rsatkichlar juda sezilarli o’zgargan. Xorazm viloyati 2018-yilda yakka qator tut daraxtlari soni 239,7 ming tupni 2019-yilda bu ko’rsatkich 589,2 ming tupga o’zgarib ketdi. Viloyatning tutzorlar maydoni 2018-yilda 131,7 ming tupni, 2019-yilda 327,6 hektarni tashkil qildi.

2019–2020-yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasi va 12 ta viloyat jami 1 yillik tahlilini qilinsa, 2019-yilda jami yakka qator tut daraxtlari soni 8572,0 ming tup bo’lsa, 2020 yilda jami yakka qator tut daraxtlari soni 7681,7 ming tupga kamaydi. Viloyatlarning jami 1 yillik tutzorlar maydoni 2019-yilda 1516,5 hektarni egallagan bo’lsa, 2020-yilda bu ko’rsatkich 2318,6 hektarga kengaygan. 2-jadvalda O’zbekiston Respublikasidagi 12 ta viloyat (Andijon, Buxoro, Farg’ona, Jizzax, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshhkent viloyati, Xorazm) hamda Qoraqalpog’iston Respublikasi hududlarida 2019–2020-yillar oralig’ida yakka qator tut daraxtlar soni va tutzorlar maydoni keltirilgan. 2019-yilda Qoraqalpog’iston Respublikasida jami tut daraxtlar miqdori 539,8 ming tupni tashkil qilgan. Jumladan Andijon viloyatida 1436,7 ming tup tut daraxtlari yetishtirilgan bo’lib, ushbu ko’rsatkich 2020-yilda yakka qator tut daraxtlari sonining 19% ga pasayganini ko’rsatadi. Ushbu yilda Respublika hududida yakka qator tut daraxtlari soni bo’yicha Samarqand viloyati keyingi



o'rinda Andijon viloyati yetakchilik qilgan (1436,7 ming tup) va ushbu ko'rsatkich jami yakka qator tut daraxtlari miqdorining 19%ini tashkil qildi. Qolaversa, Buxoro viloyatida 573,0 ming tup, Farg'ona viloyatida 737,1 ming tup, Jizzax viloyatida 300,4 ming tup, Namangan viloyatida 230,7 ming tup, Navoiy viloyatida 971,3 ming tup, Qashqadaryo viloyatida 492,6 ming tup, Samarqand viloyatida 1375,1 ming tup, Surxondaryo viloyatida 720,7 ming tup, Sirdaryo viloyatida 253,6 ming tup, Toshkent viloyatida 351,9 ming tup, Xorazm viloyatida 589,2 ming tup yakka qator tut daraxtlari soni keltirilgan.

2020-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 441,7 ming tup tut daraxtlari bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 19% ga kamaygan. Andijon viloyatida ham o'tgan yilga nisbatan qariyb 19 baravar kam tut daraxtlari bo'lган. Andijon viloyatida 2020-yilda 1175,5 ming tupni tashkil qildi va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 19% ga kamroq. Qolaversa Buxoro viloyatida 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 19% ga, Farg'ona viloyatida 18% ga, Jizzax viloyatida 19% ga, Namangan viloyatida 17% ga, Navoiy viloyatida 19% ga, Qashqadaryo viloyatida 18%ga, Samarqand viloyatida 17% ga, Surxondaryo viloyatida 19% ga, Sirdaryo viloyatida 18% ga, Toshkent viloyatida 17%ga, Xorazm viloyatida 18%ga yakka tut daraxtlari kamroq. Bundan tashqari Respublika hududining tutzorlar maydonini oladigan bo'lsak, 2020-yilda jami 7681,7 hektarni tashkil qilgan bo'lib shundan eng ko'p ulush Namangan hamda Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasida tutzorlar maydoni 61,7 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 19%ga kamaygan), Buxoro viloyatida 158,9 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 18% ga kamaygan), Farg'ona viloyatida 155,0 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 17% ga pasaygan), Jizzax viloyatida jami tutzorlar maydoni 2020-yilda 150,8 hektarni tashkil qilgan (o'tgan yilga nisbatan 19% ga o'zgargan), Namangan viloyatida esa 2,9 hektarni ya'ni eng kam yer maydonini egallagan (o'tgan yilga nisbatan 18%ga kamaydi), Surxondaryo viloyatida 347,7 hektar, Sirdaryo viloyatida 56,3 hektarni, Toshkent viloyatida 23,9 hektar (o'tgan yilga nisbatan 17% ga pasaydi), Xorazm viloyatida 268,0 hektar (o'tgan yilga nisbatan 19% ga o'zgargan).

2020–2021-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat jami 1 yillik tahlilini qilinsa, 2020-yilda jami yakka qator tut daraxtlari soni 7681,7 ming tup bo'lsa, 2021-yilda jami yakka qator tut daraxtlari soni 4408,7 ming tupga pasaygan. Viloyatlarning jami 1 yillik tutzorlar maydoni 2020-yilda 1897,0 hektarni egallagan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 1798,6 hektarga o'zgargan.

2020-yilda Respublika hududida yakka qator tut daraxtlari soni bo'yicha Samarqand viloyati 1125,0 ming tup keying o'rinda Namangan viloyati yetakchilik qilgan (857,0 ming tup), va ushbu ko'rsatkich jami yakka qator tut daraxtlari miqdorining 23% ini tashkil qildi. Qolaversa, Andijon viloyatida 1175,5 ming tupni, Buxoro viloyatida 468,8 ming tup, Farg'ona viloyatida 603,1 ming tup, Jizzax viloyatida 245,7 ming tup, Navoiy viloyatida 794,7 ming tup, Qashqadaryo viloyatida 403,0 ming tup, Surxondaryo viloyatida 589,6 ming tup, Sirdaryo viloyatida 207,5 ming tup, Toshkent viloyatida 288,0 ming tup, Xorazm viloyatida 482,1 ming tup yakka qator tut daraxtlari soni keltirilgan. 2021-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida 353,4 ming tup tut daraxtlari bo'lib, (o'tgan yilga nisbatan 6%ga ko'paygan). Andijon viloyatida ham o'tgan yilga nisbatan qariyb 20% ga ko'payib yaxshi ko'rsatkichlarni ko'rsatgan. Andijon viloyatida 2021-yilda 480,8 ming tupni tashkil qildi va bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 60%ga kamayib 1 yilda tubdan farq qiladi. Qolaversa Buxoro viloyatida 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 52% ga ya'ni tut daraxtlar sonining yarmiga pasayib ketdi, Farg'ona viloyatida 46% ga past bo'lgan. Jizzax viloyatida 12% ga kamaydi. Namangan viloyatida 23% ga kamaygan. Navoiy viloyatida 84% ga kamayib hayratlanarli darajada pasayib ketdi. Qashqadaryo viloyatida 46% ga, Samarqand viloyatida 50% ga, Surxondaryo viloyatida 41% ga, Sirdaryo viloyatida 47% ga Toshkent viloyatida 19% ga pastlab, Xorazm viloyatida 7%ga ko'payganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari Respublika hududining tutzorlar maydonini oladigan bo'lsak, 2021-yilda jami 1798,6 hektarni tashkil qilgan bo'lib, shundan eng ko'p ulush Qashqadaryo hamda Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasida tutzorlar maydoni 65,7 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 6%ga oshgan), Andijon viloyatida 72,7 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 11%ga oshdi), Buxoro viloyatida 143,5 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 10%ga kamaygan), Farg'ona viloyatida 141,1 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 9%ga pasaygan), Jizzax viloyatida jami tutzorlar maydoni 2021-yilda 157,0 hektarni tashkil qilgan (o'tgan yilga nisbatan 4%ga o'zgargan), Namangan viloyatida esa 40,0 hektarni tashkil etgan va bu o'tgan yilga nisbatan tubdan o'zgarishga sabab bo'lgan, Navoiy viloyatida 25,3 hektarni tashkil qilgan (o'tgan yilga nisbatan 20%ga o'zgargan), Qashqadaryo viloyatida 237,6 hektarga teng bo'lgan (o'tgan yilga nisbatan 33%ga kengayganini ko'rishimiz mumkin), Samarqand viloyatida 229,1 hektar (o'tgan yilga nisbatan 44%ga pasayib ketgan) Surxondaryo viloyatida 295,1 hektar (o'tgan yilga nisbatan 16%ga kamaygan), Sirdaryo viloyatida 83,1 hektarni (o'tgan yilga nisbatan 47%ga oshgan), Toshkent viloyatida 65,3 hektar o'tgan yilga nisbatan tubdan farq qilib tutzorlar maydoni ancha kengaygan, Xorazm viloyatida 243,1 hektar (o'tgan yilga nisbatan 10%ga kamaygan). Ushbu tahlildan ko'rinish turibdiki, 1 yil ichida viloyatlar kesimida tut daraxtlar soni va tutzorlar maydonidagi o'zgarishlarini ko'rish mumkin (3-jadval).



**3-jadval:** O'zbekiston Respublikasida 2016–2023-yillarda yangidan ekilgan tutzorlar maydoni tahlili (gektar hisobida)

№	Hudud nomi	Yangidan ekilgan tutzor maydonlari							
		2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	123,5	126,1	128,7	75,4	61,7	65,7	81,4	118,2
2	Andijon	62,3	77,9	93,5	80,0	65,5	72,7	135,1	166,3
3	Buxoro	231,8	213,4	231,8	194,2	158,9	143,5	253,9	202,4
4	Farg'ona	289,1	213,4	196,2	189,5	155,0	141,1	196,2	216,9
5	Jizzax	105,3	53,6	61,6	184,3	150,8	157,0	151,0	83,4
6	Namangan	34,3	25,7	34,3	3,6	2,9	40,0	102,9	108,6
7	Navoiy	40,7	30,8	37,4	25,6	20,9	25,3	68,2	100,1
8	Qashqadaryo	244,4	196,9	210,4	218,2	178,5	237,6	651,7	868,9
9	Samarqand	214,4	155,2	184,8	497,3	406,9	229,1	391,7	495,2
10	Surxondaryo	147,5	106,4	99,5	425,0	347,7	295,1	168,1	223,0
11	Sirdaryo	14,4	10,8	30,7	68,9	56,3	83,1	146,3	106,6
12	Toshkent viloyati	137,8	83,4	75,8	29,2	23,9	65,3	101,5	83,4
13	Xorazm	131,7	111,4	131,7	327,6	268,0	243,1	339,3	283,6
<b>Jami</b>		<b>1777,3</b>	<b>1405,2</b>	<b>1516,5</b>	<b>2318,6</b>	<b>1897,0</b>	<b>1798,6</b>	<b>2787,5</b>	<b>3056,7</b>

2021–2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat jami 1yillik yakka qator tut daraxtlari soni va tutzorlar maydonini tahlil qilar ekanmiz, Jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida yakka qator tut daraxtlari soni 353,4 ming tupni tashkil qiladi. 2020-yilda Respublika hududida yakka qator tut daraxtlari soni bo'yicha Namangan viloyatidan (668,4 ming tup) keying o'rinda Samarqand viloyati (565,8 ming tup) yetakchilik qilgan. Qolaversa, Andijon viloyatida 480,8 ming tupni, Buxoro viloyatida 227,4 ming tupni, Farg'ona viloyatida 327,1 ming tupni, Jizzax viloyatida 218,1 ming tup, Navoiy viloyatida 134,6 ming tupni, Qashqadaryo viloyatida 218,2 ming tup, Surxondaryo viloyatida 351,5 ming tup, Sirdaryo viloyatida 110,8 ming tupni tashkil etib, eng past ko'satkich shu viloyatga to'g'ri kelgan. Toshkent viloyatida 235,8 ming tup, Xorazm viloyatida 516,9 ming tup yakka qator tut daraxtlari soni yetishtirilgan. 2022-yilga kelib Qoraqalpog'iston Respublikasida tutzorlar maydoni 81,4 hektar (o'tgan yilga nisbatan 24%ga kengaygan)ni tashkil etdi. Andijon viloyatida ham o'tgan yilga nisbatan tutzorlar maydoni qariyb 2 baravar kengaygan. Andijon viloyatida 2021-yilda 72,7 hektarni tashkil qildi va bu ko'satkich 2022-yilga nisbatan 85%ga ko'payib 1 yil ichida tubdan farq qildi. Qolaversa Buxoro viloyatida 2021-yilda 2022-yilga nisbatan 76%ga, Farg'ona viloyatida 39%ga kengayib Jizzax viloyatiga kelganda pasayib ketganini ko'rish mumkin, Jizzax viloyatida 4%ga kamaydi, Namangan viloyatida 2021-yilda 40,0 hektarni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 102,9 hektarni tashkil qildi va bu juda yaxshi o'zgarish deyish mumkin, Navoiy viloyatida 2021-yilda 25,3 hektar yer maydoni bo'lgan va 2022-yilga kelib bu yer maydoni 68,2 hektarga kengayib ketgan, Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda 237,6 hektar bo'ldi va 2022-yilda 651,7 hektarga oshgan, Samarqand viloyatida 70%ga oshib, Surxondaryo viloyatida 44,9%ga kamaydi, Sirdaryo viloyatida 76,1%ga, Toshkent viloyatida 55,5%ga, Xorazm viloyatida 39,5%ga ko'payganini ko'rish mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat hududida ekilgan tutzorlar maydonlarini 2022–2023-yillar tahlilini ko'rib chiqamiz. 2022-yilda yakka qator tut daraxtlari Qoraqalpog'iston Respublikasida 276,0 ming tup ekilgan tutzorlar maydoni esa 81,4 hektar bo'lgan bo'lsa 2023-yilda bu ko'satkichlar 12%ga (309,6 ming tup) ko'tarilganini, tutzorlar maydoni esa 45% (118,2 hektar)ga oshirilgan. Andijon viloyatining yakka qator tut daraxtlarini tahlilini oladigan bo'lsak, 2022-yilda 368,9 ming tup ekilgan va tutzorlar maydoni esa 135,1 hektarni tashkil etgan. 2023-yilga kelib, Andijon viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 7% (397,9 ming tup)ga ko'paydi va viloyatning tutzorlar maydoni esa 23% (166,3 hektar)ga oshgan. Buxoro viloyati tut daraxtlari soni va tutzorlarini maydonini solishtiradigan bo'lsak, 2022-yilda yakka qator tut daraxtlari 219,1 ming tupni uning tutzorlar maydoni 202,4 hektarni egallagan. Buxoro viloyatining yakka qator tut daraxtlari 2023-yilda 26% (355,6 ming tup) oshdi tutzorlar maydoni esa 21% (202,4 hektar)ga pasayib ketgan. Farg'ona viloyatining yakka qator tut daraxtlari soni 2022-yilda 355,6 ming tupni tashkil qildi, viloyatning tutzorlar maydoni 196,2 hektarni egalladi. 2023-yilda Farg'ona viloyati yakka qator tut daraxtlari soni 28%ga oshgan, uning tutzorlar maydoni esa 10%ga kengaydi. Navoiy viloyati yakka qator tut daraxtlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2022-yilda 116,2 ming tupni 2023-yilda esa bu tuplar soni 65% (192,7 ming tup)ga oshirildi. 2022-yilda uning tutzorlar maydoni 68,2 hektarni tashkil etgan edi, bu ko'satkich 2023-yilda 46% (100,1 hektar)ga kengaydi.



Qashqadaryo viloyati yakka qator tut daraxtlari 2022-yil 204,4 ming tupni uning tutzorlar maydoni esa, 651,7 hektarni tashkil etgan. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich yakka qator tut daraxtlari 6% (218,2 ming tup) ga ko'payib, tutzorlar maydoni esa 33% (868,9 hektar)ni tashkil qilgan. Surxondaryo viloyati ko'rsatkichlarini ko'rib chiqar ekanmiz 2022-yilda yakka qator tut daraxtlari soni 227,2 ming tupni, viloyatning tutzor maydonlari esa 390,0 hektarga to'g'ri keladi. 2023-yilga kelib yakka qator tut daraxtlari soni 71,6%ga oshib ketgan va tutzorlar maydoni 32,6%ga kengaydi. Toshkent viloyatining tut daraxtlari va tutzorlar maydoniga keladigan bo'lsak, 2022-yilda bu viloyatning yakka qator tut daraxtlari soni 221,1 ming tupni uning tutzor maydoni 101,5 hektarni tashkil qildi. 2023-yilga kelib bu ko'rsatkichlar keskin ko'tarildi, yakka qator tut daraxtlari soni 46% ga oshib ketdi va viloyatning tutzorlar maydoni 18,1% ga pasaydi. 2022–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatning yakka qator tut daraxtlari sonining jami 2022-yilda 3889,6 ming tupni tashkil qildi va 2023-yilda uning ko'rsatkichi 27,7% ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shu ko'rsatkichlarning tutzorlar maydoni 2022-yilda 2787,5 hektarni tashkil qilgan bo'lsa 2023-yilga kelib, 9,6% ga oshganini ko'rish mumkin.

## XULOSA

Respublikamiz ipakchilik sanoati so'ngi yillarda ma'lum bir pasayish siklini o'tadi. 2016–2019-yillar davomida yetishtirilgan ipak miqdori tahlillarini ko'rар ekanmiz 2017-yilga kelib 2016-yilga nisbatan 52,6 %ga kamayganini, undan keyin yildan yilga o'sish kuzatilganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Lekin o'rtada 2020-yilga kelib esa sal pasayganini ko'rishimiz mumkin. 2019-yilga nisbatan 7% ga kamaygan bo'lsa ham undan keyingi davrlarda sekin astalik bilan o'sib borishini kuzatishimiz mumkin. Pilla yetishtirish va uni qayta ishlash ham kichik yashil biznesning muhim bir qismi bo'lib, O'zbekiston Respublikasida pillani qayta ishlab chiqarish korxonalarini jami 44 ta MCHJ bo'lib, ular 702924 ta ishchi o'rinnarini yaratib insonlarni ish bilan ta'minlab kelmoqda. O'zbekiston hududida yashil hududlarni kengatirish maqsadida manzaralari va mevali daraxtlar, gulzor va bo'glarning hajmi keskin tarzda ko'paytirilganini ko'rishimiz mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Артикова С. Формирование и повышение эффективности регионального подкомплекса шелк АПК в Узбекистана в условиях перехода риночным отношениям. И.Ф.Д., дисс. – Т., 1991.
2. O'roqov SH. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pillachilik tarmog'i rivojlanish istibollarini belgilash. I.f.n.diss. - T., 2005. – 14 b.
3. Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. – M.: Knijniy mir, 2000. – s. 185.
4. <https://www.uzbekipaksanoat.uz>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.